

**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining yalpi majlisiga 2022 yilning
birinchi yarmi yakunlari bo'yicha Ichki ishlar vaziri general-leytenant
P.R.Bobojonovning huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning profilaktikasi
holati to'g'risidagi axboroti**

O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning yaxlit tizimini shakllantirish, ichki ishlar organlarining eng quyi bo'g'inidan respublika darajasigacha samarali faoliyatini yo'lga qo'yish va zamonaviy ish uslublarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bunda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va topshiriqlari talablari asosida ichki ishlar organlari faoliyatini tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizmlari etib quyidagilar belgilandi:

- – har bir mahalla, oila va shaxs kesimida jinoyatchilikning sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish orqali huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishga oid muammolarni bevosita joylarning o'zida hal etish;
- – hududlarda jinoyatchilik ahvolidan kelib chiqib, har bir tuman, shahar va mahallalarni toifalarga ajratish hamda kriminogen og'ir hududlarga hokimliklar, sektorlar va jamoatchilik bilan hamkorlikda “jinoyat o'choqlari«ni bartaraf etish uchun qo'shimcha kuch va vositalarni jalb qilish;
- – respublika – viloyat – tuman – mahalla” tizimi asosida yaxlit boshqaruv va uzluksiz nazorat qilish mexanizmlarini joriy etish, ichki ishlar va boshqa davlat organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash borasidagi faoliyatini samarali muvofiqlashtirish orqali mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash;

– ichki ishlar organlarining zamonaviy qiyofasini yaratish, tizim xodimlarining shaxsiy

mas'uliyati va kasbiy salohiyatini oshirish, jinoyatchilikning yangi ko'rinishlariga qarshi kurashish uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirish hamda sohani to'liq raqamlashtirishga erishish.

Bu borada, 2022 yilning birinchi yarmida ichki ishlar organlarining faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish maqsadida bir qator quyidagi kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturidagi chora-tadbirlar uchun Ichki ishlar vazirligi asosiy ijrochi etib belgilangan barcha bandlarning ijrosi ta'minlandi.

Oliy Majlis Senatining 2022 yil 19 martdagi «O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning profilaktikasi holati to'g'risidagi axboroti haqida»gi qarori (SQ-504-IV-son) bilan belgilab berilgan topshiriqlarning har bir bandi alohida nazoratga olinib, mas'ullar belgilandi va joyiga chiqqan holda ijroga qaratildi.

Ichki ishlar vazirligida ijro intizomini mustahkamlash, bu borada barcha darajadagi rahbarlar mas'uliyatini kuchaytirish masalalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 fevraldagi ijro intizomi masalalari bo'yicha PF-6166-son Farmoni va 31 maydagi

«ijro.gov.uz» tizimida topshiriqlar ijrosini va nazoratini tashkil etishning yangicha mexanizmini belgilab beruvchi PQ–5132-son qarori asosida olib borildi.

Jumladan, 2022 yilning 6 oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 107 ta Farmon, qaror, farmoyishlari, majlis hamda hududlarga tashriflari bayonlari doirasida ichki ishlar organlariga yuklatilgan jami 368 ta topshiriqlarning ijrosi bajarilishi ta'minlandi.

Bunda, berilgan vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida Ichki ishlar vazirligi tomonidan kiritilgan loyihalar asosida 20 ta normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Bundan tashqari, 51 ta normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari, shundan 14 ta qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1 ta Farmoni, 7 ta qarori, Hukumatning 29 ta qarori loyihalari ishlab chiqilib, belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.

Yuqoridagi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilinishi natijasida ichki ishlar organlari faoliyati yanada takomillashtirildi.

Jumladan, ishni sudga qadar yuritish bosqichida jinoyatlarga oid arizalar, xabarlarini ko'rib chiqish hamda jinoyat ishi bo'yicha surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarning tezkorlik bilan olinishini ta'minlash uchun davlat organlari o'rtasida tezkor axborot almashishni amalga oshirish bo'yicha "Elektron surishtiruv va dastlabki tergov" yagona axborot tizimi joriy etildi.

Ichki ishlar vazirligi Ekspert-kriminalistika bosh markazida Genetik tadqiqotlar va Shaxsning genom axborotini davlat ro'yxatiga olish bo'limlari tashkil etildi.

Ichki ishlar vazirligi ta'sis chiligida o'qotar, pnevmatik, gazli, signal beruvchi, sovuq, uloqtiruvchi va boshqa qurollar, ularning o'q-dorilarini, maxsus vositalarni, o'q o'tkazmaydigan maxsus himoya vositalarini, elektroshok qurilmalari, pirotexnika buyumlari va portlovchi materiallarni sertifikatlashni amalga oshiruvchi davlat muassasasi tashkil etildi.

Ekspert-kriminalistika bosh markazida 2022 yil yakuniga qadar 8 ta, 2023 yil yakuniga qadar esa yana 3 ta yangi turdagi ekspertiza va tadqiqotlar o'tkazilishi yo'lga qo'yilishi belgilandi.

2023 – 2026 yillarda ichki ishlar organlarining patrul-post xizmati saf bo'linmalarini avto va mototransport vositalari, xizmat otlari va anjomlar bilan ta'minlash dasturi tasdiqlandi hamda otliq otryadlari uchun yangi bino va inshootlarni qurish belgilandi.

Shuningdek, 2022 – 2024 yillarda ichki ishlar organlari bo'linmalarini elektron brasletlar bilan ta'minlash dasturi tasdiqlandi. Unga ko'ra, konvoy ostidagi shaxslar qochishga uringan (elektron brasletni echish) holatlar haqidagi tovushli va vizual xabarni onlayn rejimida avtomatik tarzda biriktirilgan konvoychi xodimga hamda navbatchilik qismlariga uzatish imkoniyati yaratiladi.

Mahallalarda jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda ichki ishlar organlari, boshqa huquq-tartibot organlari va jamoat tuzilmalarining faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida Toshkent shahri tumanlarida, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar markazlarida hamda yirik tuman va shaharlarda amaldagi tayanch punktlar o'rniga har beshta mahallaga faoliyat ko'rsatuvchi "Mahalla huquq-tartibot maskanlari» tashkil etilishi belgilandi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta'minlash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar

2022 yilning 6 oyi mobaynida respublika hududida jinoyatchilikni jilovlash, sodir etilgan jinoyatlarni fosh etish va jamoat xavfsizligini ta'minlash borasida bir qator kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

1. Tezkor-qidiruv faoliyatini jadallashtirish yo'nalishida:

- respublikada sodir etilgan jinoyatlarning 43 728 tasi yoki 93,9 foizi fosh etildi, tergov organlaridan yashiringan 2 841 nafar shaxslar ushlandi, 203 nafar bedarak yo'qolganlar topilib, 11 ta shaxsi noma'lum murdalarning shaxsi aniqlandi;
- 1 066 nafar shaxslar tomonidan sodir etilgan 817 ta korrupsiya va iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar aniqlanib, ular oqibatida etkazilgan 116 mlrd 515 mln so'm miqdoridagi zararining undirilishi ta'minlandi;
- 1 tn 206 kg narkotik vositalari, shuningdek turli yot g'oyalarni targ'ib etishda foydalanilgan 54 ta adabiyotlar va 111 ta ma'lumot tashuvchilar olindi;
- 1 135 marotaba maxsus operatsiyalarda 14 811 nafar jinoyat sodir qilgan shaxslar ushlanib, ulardan 5 dona o'qotar qurollar, 1 222 dona o'q-dorlar, 118 dona sovuq qurol va 46 kg 618,3 gr giyohvandlik vositasi aniqlab olindi;
- 861 bosh xizmat itlari yordamida 1 669 ta jinoyatlar fosh etilib, 50 kg ortiq giyohvandlik vositalari aniqlandi;
- targ'ibot-tashviqot ishlari natijasida fuqarolardan 548 dona qurol va 971 dona o'q-dorilar ixtiyoriy ravishda olindi, 73 nafar fuqarolar esa 634 dona qurol va 1 923 dona o'q-dorilarni noqonuniy saqlaganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortildi;
- 244 nafar «hujra»larda qatnashgan, 35 nafar chegara qoidalarini buzgan hamda 120 nafar odam savdosi jinoyatini sodir etgan shaxslarga nisbatan qonuniy choralar ko'rilishi ta'minlandi;
- muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarni reabilitatsiya qilish markazlarida saqlangan 3 595 nafar shaxslar bilan olib borilgan tezkor-qidiruv tadbirlari natijasida 75 nafar qidiruvda bo'lgan shaxs aniqlandi va 38 ta jinoyatlar fosh etildi;

2. Jinoyatchilikni «mahallabay» usulida jilovlash yo'nalishida:

- 116 485 nafar ilgari sudlangan shaxslar profilaktik hisobdan chiqarilib, 11 847 nafari ishga joylashishi uchun yo'llanmalar berildi va 2 817 nafari moddiy yordam ko'rsatildi;
- voyaga etmaganlarning 3 294 nafari o'qishga qaytarildi, 4 955 nafari sport, 3 904 nafari fakultativ to'garaklarga, 1 272 nafari kichik biznes shoxobchalariga jalb etildi va 1 407 nafari «Barkamol avlod» markazlariga joylashtirildi;
- nazoratsiz yurgan 51 003 nafar voyaga etmagan shaxslar aniqlanib, 15 225 nafari ijtimoiy-huquqiy yordam markazlariga va 106 nafari o'quv-tarbiya muassasalariga joylashtirildi;
- profilaktika inspektorlari tomonidan 887 ming 108 ta ma'muriy huquqbuzarliklar, shundan, 58 558 ta pasport tizimi qoidalarini buzish, 128 748 ta jamoat joylarida spirtli ichimlik ichish va 1 806 ta oz miqdorda talon-toroj qilish huquqbuzarliklari aniqlangan;
- profilaktika inspektorining vakolatiga kiruvchi ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha 23,9 mlrd so'm jarima undirilgan bo'lib, 55,7 mlrd so'm jarimani undirish uchun hujjatlar tegishli idoralarga yuborilgan;

– 4 670 ta IIO tayanch punktlariga optik tolali kabel tortilib, buning natijasida «onlayn sud» o'tkazish uchun 3 805 ta joylar joriy etilib, sudlarda 40 525 ta ma'muriy ishlar «onlayn» tarzda ko'rib chiqildi;

– mahallalarda 5 545 ta «Fidokor yoshlar» jamoatchilik patrul guruhlarini tashkil etilib, ularga 15 873 nafar yoshlar jalb etildi va jamoat xavfsizligini ta'minlash ishlariga yo'naltirildi;

– uyma-uy yurish orqali aholida 7 636 ta ijtimoiy-iqtisodiy muammolar aniqlanib, ularni bartaraf qilish uchun mahalliy hokimliklar hamda mutasaddi idoralarga 5 354 ta taqdimnomalar kiritildi.

Bundan tashqari, respublika miqyosida 3 marotaba «Xavfsiz hudud», «Turmush» va «Nazorat» tezkor-profilaktika tadbirlari o'tkazildi.

Mazkur tadbirlar davomida 11 666 ta oilalarning muammolari, 21 972 nafar ilgari sudlanganlar, 11 260 nafar ma'muriy nazorat qonuni ta'siri ostiga tushuvchilar, 2 465 nafar o'ta xavfli retsdivistlar, 5 845 nafar ma'muriy nazoratda turgan shaxslarning turmush tarzi o'rganilib, ular bilan yakka tartibdagi profilaktik suhbatlar o'tkazildi.

3. Alohida toifadagi shaxslar bilan ishlash yo'nalishida

Yoshlar orasida jinoyatchilikning barvaqt oldini olish borasida alohida e'tibor uyushmagan yoshlar bilan ishlashga qaratilib, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish choralari ko'rildi:

– Ichki ishlar vazirligi tomonidan respublikaning 3-sektorlarida yoshlar o'rtasida sportning voleybol turi bo'yicha Ichki ishlar vazirining kubogi musobaqalari o'tkazildi;

– ichki ishlar organlariga ko'maklashayotgan yoshlar o'rtasida j.y. 20 maydan 25 iyulga qadar Eng faol «Fidokor yoshlar» jamoatchilik patrul guruhi a'zosi ko'rik-tanlovi o'tkazildi;

– yoshlarni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish hamda ularning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada oshirish maqsadida joriy yil 15 maydan 8 avgustga qadar «Yosh huquqshunos» ko'rik tanlovi o'tkazilmoqda.

Xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish hamda oilalarda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi:

– 3 067 nafar xotin-qizlarning ishga joylashishida, 3 132 nafariga moddiy va ijtimoiy yordam berilishida, 215 nafarini tibbiyot dispanserlariga yuborilishida, 716 nafariga shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini qayta tiklashda, 1 138 nafariga tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishda amaliy yordamlar ko'rsatildi;

– og'ir ijtimoiy ahvolda qolgan, shu jumladan oilaviy muammolar va turmushida zo'ravonlik ishlatilishiga duch kelgan 172 nafar xotin-qizlar Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlariga joylashtirildi;

– ijtimoiy muammolari hal etilishi natijasida sog'lom turmush tarziga o'tgan 9 157 nafar, shu jumladan 228 nafar voyaga etmagan qizlar, 2 156 nafar yosh (18-30 yosh) xotin-qizlar, 217 nafar ilgari sudlangan ayollar ichki ishlar organlari hisobidan chiqarildi;

– «himoya orderi» rasmiylashtirilgan 25 869 nafar xotin-qizlarning oilalarida olib borilgan profilaktik ishlar natijasida 12 843 ta oila yarashtirildi, 11 640 ta oilalarda nizolar bartaraf etildi, shuningdek, ularning qonuniy haq-huquqlarini to'liq ta'minlash maqsadida, tazyiq o'tkazgan va

(yoki) zo'ravonlik sodir etgan 2 762 nafar shaxslar himoya orderi talablarini bajarmaganligi uchun ma'muriy javobgarlikka tortildi;

– og'ir vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga tezkorlik bilan zaruriy yordam ko'rsatish uchun tizimda (Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati tarkibida, 2022 yil 10 yanvardan) qisqa «1259» va «1286» raqamli “Ishonch markazi” tashkil etilib, markazga qo'ng'iroq qilgan 5 976 nafar ayollarga psixologik va huquqiy yordam ko'rsatildi.

Aholining kam ta'minlangan, yakka yolg'iz, boquvchisini yo'qotgan, nogiron hamda doimiy mehnat bilan band bo'lmagan qatlamlari bilan ishlash borasida “mahallabay” tizimi yo'lga qo'yildi.

Mazkur tizim doirasida, hududiy ichki ishlar organlari rahbarlariga birlashtirilgan 3-sektorlarda:

– “Temir daftar»ga kiritilgan 165 865 ta ehtiyojmand oilalarning muammolarini hal qilish borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida, bugungi kunga kelib ularning 157 114 tasida (94,7 %) daromad manbai shakllantirildi va ular Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari qarorlari asosida ro'yxatdan chiqarildi;

– «Ayollar daftari»ga kiritilgan 644 849 nafar xotin-qizlarga ko'maklashish orqali ularning 497 497 nafariga 3-bosqich doirasida zaruriy yordam ko'rsatildi;

– «Yoshlar daftari»ga kiritilgan 49 974 nafar qo'shimcha ko'makka muhtoj yoshlarning 886 nafari doimiy ish o'rinlari bilan ta'minlandi, 1 156 nafariga kredit ajratildi, 16 042 nafariga er ajratildi, 177 nafari «ustoz-shogird» an'anasi asosida hunarmandlarga birlashtirildi, 4 120 nafariga subsidiya ajratildi, 1 680 nafariga ijtimoiy-iqtisodiy yordam ko'rsatildi. Amalga oshirilgan ishlar natijasida bugungi kunda jami 41 598 nafar (83,2 %) yoshlar ro'yxatdan chiqarildi.

Bundan tashqari, “Yoshlar daftari»ga kiritilgan shaxslarning 1 831 nafariga safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o'tash badali hamda 897 nafariga haydovchilarni tayyorlash kurslarida o'qish xarajatlari qoplab berildi.

Shuningdek, “Yoshlar daftari»ga kiritilganlarning 288 nafariga ijara xarajatlari, 3 832 nafariga esa mehnat qurollari xarid qilish uchun bir martalik subsidiya ajratildi.

4. «Xavfsiz ta'lim muassasasi» tamoyili asosida voyaga etmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish yo'nalishida:

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida 2 000 nafar voyaga etmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixolog lavozimlari joriy etilib, ular tomonidan har bir o'quvchi kesimida maxsus profilaktik tadbirlar o'tkazildi:

– 80 274 nafar o'quvchilarining xonadonlaridagi yashash sharoiti o'rganildi;

– 79 695 nafarining ota-onasi bilan suhbatlar o'tkazildi;

– 32 042 nafar bolalarning tarbiyalash, ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatni bajarmagan ota-onasi (MJtKning 47-m) ma'muriy javobgarlikka tortildi;

– 81 439 nafari bilan bevosita suhbatlar olib borildi.

Inspektor-psixologlar tomonidan olib borilgan profilaktik tadbirlar natijasida to'g'ri yo'lga o'tganligi uchun 36 565 nafar (61,8%) tarbiyasi og'ir o'quvchilar nazoratdan chiqarilib, 22 603 nafar (38,2 %) voyaga etmaganlar bilan hozirgi kunda ham profilaktik ishlar olib borilmoqda.

Shuningdek, ta'lim muassasalarida «Tig'» maxsus tadbirlari doirasida 9 204 ta reydlar amalga oshirilib, voyaga etmaganlar tomonidan sovuq qurol olib yurishiga chek qo'yish chorolari ko'rildi:

– o'quvchilarda 207 ta inson hayoti yoki sog'lig'iga zarar etkazishi mumkin bo'lgan buyumlar aniqlanib, 433 nafar voyaga etmaganlar va ularning tarbiyasiga mas'ul shaxslarga nisbatan qonuniy choralar ko'rildi;

– 12 686 nafar o'quvchilarining uyali telefonlari tegishli tartibda o'rganilib, 471 ta salbiy holatlar voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyalarda muhokama qilindi hamda uyali telefondan to'g'ri foydalanishiga qaratilgan 12 393 ta tushuntirish ishlari olib borildi.

5. Jamoat xavfsizligi kontseptsiyasi ijrosini ta'minlash yo'nalishida:

Respublikaning har bir hududida Jamoat xavfsizligi kontseptsiyasining ijrosini manzilli ta'minlash maqsadida "sohabay" chora-tadbirlar amalga oshirildi:

– Jamoat xavfsizligi kontseptsiyasi ijrosini samarali tashkil etish bo'yicha Ichki ishlar vazirligi va boshqa mutasaddi idoralarning 123 nafar malakali mutaxassislaridan iborat ishchi guruhi faoliyati doimiy asosda yo'lga qo'yilib, 4 ta qonun, 2 ta Prezident qarori, 11 ta Hukumat qarori, 7 ta qo'shma qaror, 4 ta idoraviy normativ-huquqiy hujjat loyihalari ishlab chiqilib, Vazirlar Mahkamasiga kiritildi;

– har bir tuman va shaharda Jamoat xavfsizligi kontseptsiyasining mazmun-mohiyatini etkazish bo'yicha hududiy prokuratura idoralari bilan maxsus seminar-trening mashg'ulotlari o'tkazildi;

– jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'linmalarining jangovar tayyorgarlik holatini ta'minlash borasida 538 marotaba maxsus taktik (439 tasi) va qo'mondonlik shtab (99 tasi) mashg'ulotlari o'tkazildi;

– har kuni 3 939 nafar xodimlar 2 225 ta piyoda va 1 705 ta avtopatrul yo'nalishlariga xizmatga jalb etilib, shubha uyg'otgan 1 635 560 nafar shaxslar ichki ishlar organlariga keltirilib, jamoat joyida sodir etilgan 651 596 ta huquqbuzarliklar aniqlandi;

– tezlik me'yorlariga rioya etilmaslik holatlarini aniqlash maqsadida «onlayn» rejimda ishlovchi 448 ta mobil fotoradarlar o'rnatildi, yo'l-patrul xizmati xodimlari 4 076 ta bodikameralar, 3 514 ta qoidabuzarliklarni rasmiylashtiruvchi planshetlar bilan ta'minlandi;

– respublika avtomobil yo'llarida 3,6 mlndan ortiq yo'l harakati qoidabuzarliklari aniqlandi;

– respublika miqyosida 46 mln 694 mingdan ortiq fuqarolar ishtirokida 107 894 marotaba o'tkazilgan ommaviy-madaniy tadbirlar davomida jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligi to'liq ta'minlandi.

Yo'l-transport hodisalarining oldini olish tadbirlari

2022 yil 11 fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida berilgan topshiriqlar asosida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasida islohotlarning yangi bosqichi boshlandi.

Bu borada Respublika ishchi guruhi tashkil etilib, sohadagi tizimli kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4 ta qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 6 ta qarori qabul qilindi.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ta'minlash, harakatni tashkil etish va boshqarish sohasidagi faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda:

– Toshkent, Nukus shaharlari va viloyatlar markazlarida barcha svetoforlar va yo'l belgilarini o'rnatish hamda yo'l chiziqlari chizish mas'uliyati bevosita IIV Yo'l harakati xavfsizligi xizmati zimmasiga yuklatilib, uning huzurida «Xavfsiz yo'l va xavfsiz piyoda» respublika jamg'armasi tashkil etildi;

– Toshkent shahri va viloyat markazlaridagi chorrahalarini to'liq raqamli boshqaruv tizimiga o'tkazish vazifasi hokimlar zimmasiga yuklandi:

– Bosh vazir rahbarligida Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash respublika maxsus komissiyasi, hokimlar rahbarligida esa hududiy maxsus komissiyalar tuzilib, ularning tarkibi va nizomi tasdiqlandi;

– 2022 yil 1 iyuldan boshlab, barcha tuman (shahar)lar kesimida «Xavfsiz yo'l» indeksini yuritish amaliyoti yo'lga qo'yilib, indikatorlar tasdiqlandi. Maxsus komissiyalar har chorakda hududlarda yo'l harakatini samarali tashkil etish holatini 29 ta indikator bo'yicha baholab boradi;

– 2022 yil 1 iyuldan boshlab engil avtotransport vositalarining orqa yon oynalari tusini o'zgartirish uchun ruxsatnoma olish tartibi bekor qilindi hamda engil avtotransport vositalari old yon oynalari tusini o'zgartirishga ruxsatnoma uchun to'lov miqdori kamaytirilib, bazaviy hisoblash miqdorining sakkiz baravari etib belgilandi;

– 2022 yil 1 sentyabrdan boshlab, ishlab chiqarilganiga o'n yilgacha bo'lgan jismoniy shaxslarga tegishli engil avtomototransport vositalarini texnik ko'rikdan o'tkazish ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi;

– 2022 yil 1 sentyabrdan boshlab avtotransport vositasini boshqarish huquqini beruvchi ishonchnomalarni Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali elektron shaklda rasmiylashtirish tizimi joriy etiladi;

– «Yo'l harakati qoidalarini» yangi tahrirda qabul qilindi;

– Yo'l harakati xavfsizligi xizmatining hududiy boshqarmalarida umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda xizmat olib boradigan katta inspektor lavozimi joriy etildi hamda ta'lim muassasalarida ko'ngilli yoshlar ishtirokida yo'l harakati qoidalarini faol targ'ib qiluvchi «Yo'l harakati qoidalarini yosh targ'ibotchisi» klubi tashkil etildi;

– avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi ta'lim tashkilotlarining reytingini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi.

Ta'lim tashkilotlari faoliyatini reyting baholash yil yakunlari bo'yicha Yo'l harakati xavfsizligi xizmati tomonidan inson omilisiz ta'lim tashkilotlariga doir ma'lumotlar asosida ularning reytingini hisoblashning yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali amalga oshirilishi va uning natijalari jamoatchilikka e'lon qilinishi belgilandi;

– yo'l-patrul xizmati statsionar postlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish orqali ushbu maskanlarda inson omilini cheklagan holda transport vositalarining to'siqsiz harakatlanishini ta'minlash bo'yicha «Yashil» va «Qizil» yo'lak tizimini bosqichma-bosqich joriy etish etilishi belgilandi;

– 2022 yil 1 dekabrda boshlab qoidabuzarliklar uchun differentsiyalashgan jarima ballarini hisoblab borish tizimi joriy etilib, bir yil ichida haydovchi 12 ball olsa boshqarish huquqidan mahrum etilishi belgilandi.

Ichki ishlar organlari faoliyatini raqamlashtirish

Ichki ishlar organlari faoliyatiga raqamli texnologiyalar va axborot tizimlarini joriy etish borasida ham bir qator ishlar amalga oshirildi.

– “E-voyaga etmaganlar” yagona axborot tizimi yaratilib, sinov tariqasida Toshkent viloyatidagi Voyaga etmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko’rsatish markazida joriy etildi;

– “E-inspektor», “E-hisobot», «Profilaktika inspektori faoliyatini baholash tizimi» va «E-huquq-tartibot» kabi jamoat xavfsizligini ta’minlash va huquqbuzarliklarning oldini olishda foydalanish uchun bir qator axborot tizimlarini yaratish yuzasidan Texnik topshiriq loyihalari ishlab chiqilib, tasdiqlandi;

– «O’zbekiston Respublikasi IIV Probatsiya xizmatining real vaqt rejimida ozodlikni cheklash jazo muddatini o’tayotgan shaxslarni masofadan turgan holda nazorat qilish tizimi» texnik topshirig’i loyihasi tasdiqlandi va hozirda ishlab chiqilgan axborot tizimi Vazirlik tomonidan yaratilgan Yagona boshqaruv platformasiga integratsiya qilindi;

– «Oilaviy zo’ravonliklar to’g’risidagi xabarlar» yuzasidan telegramm-bot orqali arizalar qabul qilinishi yo’lga qo’yildi;

– «Tazyiq va zo’ravonlikka uchragan xotin-qizlar» axborot tizimi yaratilib, himoya orderini berish mexanizmlari raqamlashtirildi va xotin-qizlarga himoya orderi berilishini elektron nazorat qilish amaliyoti joriy etildi;

– «Maishiy zo’ravonlik» va «Profilaktika inspektori murojaati»ni qabul qilish bo’yicha aloqa markazi tashkil etilib, ro’yxatga olish va nazorat qilish bo’yicha veb-platformalar joriy qilindi;

– transport va turizm ob’ektlarining xavfsizligini ta’minlash maqsadida Situatsion-tahliliy markaz tashkil etilib, jami 1 948 dona videokuzatuv kameralari integratsiya qilinishi ta’minlandi.

Aholiga davlat xizmatlarini ko’rsatish

– Davlat xizmatlarini ko’rsatish markazlari orqali fuqarolarga 238 189 ta haydovchilik guvohnomalari rasmiylashtirilib, 45,4 mlrd so’mdan ortiq pul mablag’lari tushirildi;

– O’zbekiston Respublikasi fuqarolariga 554 ming 369 ta ID-kartalar rasmiylashtirilib berildi, 396 nafar (2016 yildan beri jami 23 411 nafar) fuqaroligi bo’lmagan shaxslar O’zbekiston fuqaroligiga qabul qilindi;

– respublikamizga tashrif buyurgan 201 ming 572 nafardan ortiq xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo’lmagan shaxslar vaqtinchalik qayddan o’tdi va 2 176 nafaridan doimiy yashash uchun hujjatlar qabul qilindi;

– Toshkent shahriga 92 431 nafar va Toshkent viloyatiga 36 108 nafar fuqarolar doimiy, shuningdek, Toshkent shahriga 44 294 nafar va Toshkent viloyatiga 15 644 nafar shaxslar vaqtinchalik turgan joyi bo’yicha ro’yxatga olindi;

– fuqarolarga xorijga chiqish biometrik pasporti rasmiylashtirish uchun 253 ta hujjatlarni yig’ish punktlari tashkil etilgan bo’lib, ular tomonidan 1 mln 278 ming 339 ta talabnomalar shakllantirildi;

– joriy yilning birinchi yarmida 1 mln 222 ming 652 nafar fuqarolarga xorijga chiqish biometrik pasportlari rasmiylashtirildi;

– avtomashinalarning davlat raqam belgilarini auktsion orqali sotish orqali 76 179 ta davlat belgilari sotilib, 170,4 mlrd soʻmdan ortiq pul mablagʻlarining tushishi taʼminlandi.

Ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish, maʼnaviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish borasidagi ishlar

2022 yilning 6 oyi davomida ichki ishlar organlari xodimlari uchun munosib xizmat sharoitlarini yaratish va ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash borasida quyidagi ishlar amalga oshirildi, xususan:

– 3 412 nafar xodimlarga ijarada yashaganliklari uchun pul kompensatsiyalari toʻlab berilishi yoʻlga qoʻyildi;

– 379 nafar yashash sharoitini yaxshilashga muhtoj xodimlarga uy-joy sotib olish, taʼmirlash, uy-joy qurish, qurilish mollari sotib olish uchun foizsiz qarz ajratildi;

– ipoteka krediti asosida 280 nafar xodimlarga xonadonlar berildi;

– 52 nafar turli darajadagi tan jarohati olgan va halok boʻlgan xodimlarning 34 nafariga nisbatan bir martalik nafaqa pullari toʻlandi;

– ijtimoiy himoya qilish masalalari boʻyicha vazirlikning markaziy va hududiy komissiyalari tomonidan 946 nafar ehtiyojmand xodimlarga pul mablagʻlari berilishi boʻyicha qaror qabul qilindi;

– ishchi ishlar organlarining amaldagi 1 917 nafar xodim va harbiy xizmatchilarining 1 998 nafar farzandlariga ajratilgan besh foizlik kvota doirasida Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim muassasalari bakalavriatiga tanlov asosida oʻqishga kirish uchun Ichki ishlar vazirining tavsiyanomalari berildi.

Shu kabi, 519 nafar xodimlarning 537 nafar farzandlariga ajratilgan besh foizlik kvota doirasida Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya va Davlat bojxona qoʻmitasining oliy va oʻrta maxsus taʼlim muassasalariga dastlabki va kasbiy tanlov natijalari asosida qabul qilish uchun Ichki ishlar vazirining taqdimnomalari berildi;

– yuqori natijalarga erishgan 20 nafar xodimlar davlat mukofotlari bilan, 1 692 nafar xodimlar Ichki ishlar vazirining buyrugʻi bilan taqdirlandi;

– ish samaradorligini oshirish maqsadida 109 nafar rahbar xodimlar boshqa lavozimlarga rotatsiya qilindi, 7 473 nafar xodimlar attestatsiyadan oʻtkazildi;

– xizmat faoliyatida kamchiliklarga yoʻl qoʻyganligi uchun 91 nafar rahbar xodimlar lavozimidan ozod etilib, oʻrniga tashabbuskor yangi rahbarlar tayinlandi;

– shaxsiy tarkib bilan 514 marotaba targʻibot-tashviqot ishlari, 8 700 marotaba yakka tartibdagi konsultativ suhbatlar oʻtkazildi;

– xodimlarga 87 ta holatda pora berish jinoyatlari boʻyicha tadbirlar oʻtkazilib, xizmat vazifasiga vijdonan yondashgan xodimlarga 257,5 mln soʻm pul mablagʻlari berildi;

– 20 798 nafar ichki ishlar organlari xodimlari turli modullar va oʻz yoʻnalishlari boʻyicha malaka oshirish dasturlari asosida oʻqitildi;

– uzluksiz “oʻquv-karera tizimi” boʻyicha 3 306 nafar xodimlar oʻqitilib, shulardan 3 108 nafariga tegishli namunadagi sertifikatlar topshirildi;

- tizimdagi 43 357 nafar xodimlarni jalb etgan holda 1 881 ta (479 tasi yakka kurash turlari bo'yicha) sport musobaqalari o'tkazildi;
- sport turlari bo'yicha 1 222 nafar xodimlar g'oliblik sovrinlariga ega bo'lganligi uchun moddiy rag'batlantirildi;
- o'q otish bazalarida 46 005 nafar xodimlar bilan jami 620 marotaba amaliy o'q otish mashg'ulotlari o'tkazildi.

2022 yil 6 oyida sodir etilgan jinoyatlarning tahlili

2022 yilning 6 oyida respublikada bo'yicha jami 46 529 ta jinoyat qayd etilgan bo'lib, bu har 100 ming aholiga nisbatan o'rtacha 131 tani tashkil etadi.

Jinoyatlarni tergov qilish davomida 17 999 ta jinoyatlar avvalgi yillarda sodir etilganligi aniqlanib, 2022 yilda hisobga qo'yildi.

Shuningdek, qayd etilgan jinoyatlarning deyarli yarmi (jami 46 529 tadan 19 099 ta, 41 %), xodimlarning tashabbusi bilan aniqlangan va bu amaliyot o'tgan yilning shu davriga nisbatan 23,7 foizga (15 434 tadan 19 099 taga) yaxshilandi.

Umumiy jinoyatlarning har uchinchisini (46 529 tadan 15 669 ta, 33,7 %) firibgarlik va o'g'rilik tashkil etgan.

Firibgarlik jinoyatlarining 821 tasi ishga va o'qishga kiritib qo'yish, 765 tasi uy-joy va kredit olib berish, 643 tasi qarz oldi-berdisi, 401 tasi avtomashina olib berish, 68 tasi plastik kartochkadagi pullarni naqdlashtirib berish maqsadida aldab sodir etilgan.

Shuningdek, o'g'riliklarning 1 441 tasi xonadon, 1 363 tasi telefon, 388 tasi velosiped, 411 tasi hayvon o'g'riliklarini, 260 tasi kissavurlikni tashkil etgan.

Sodir etilgan 183 ta qotillik jinoyatlarining:

- 80 tasi oila-turmush munosabatlari doirasida, shundan 38 tasi o'zaro kelishmovchilik, 13 tasi rashk tufayli, 8 tasi mol-mulk talashish, 3 tasi o'ch olish va 18 tasi boshqa sabablarga ko'ra sodir etilgan;
- 31 tasi eri tomonidan xotiniga, 7 tasi xotini tomonidan eriga, 12 tasi akasi yoki ukasiga, 3 tasi qo'shnisiga va 27 tasi qarindoshiga nisbatan sodir etilgan.

Bundan tashqari, jami qayd etilgan 3 363 ta tan jarohati etkazish jinoyatlarning:

- 687 tasi oila-turmush munosabatlari doirasida;
- 460 tasi o'zaro kelishmovchilik, 45 tasi rashk tufayli, 36 tasi mol-mulk talashish, 9 tasi o'ch olish va 137 tasi boshqa sabablarga ko'ra sodir etilgan.

Respublikadagi barcha 9 349 ta mahallalarning yarmisida (4 951 tasida, 53%) jinoyatlar sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi.

Shuningdek, 3 119 ta mahallada har 10 ming aholi soniga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar soni tuman-shahar ko'rsatkichidan yuqoriligicha qayd etilib, ular "qizil" toifaga kiritilgan hamda jinoyatlar sodir etilgan yana 1 279 ta mahallalar "sariq" toifaga ajratildi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish borasida rejalashtirilgan ishlar

1) Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarda aholi osoyishtaligi hamda kriminogen vaziyat barqarorligini ta'minlash bo'yicha o'tkazilgan kompleks o'rganishlar davomida har bir tuman-shahar kesimida jinoyatchilikni jilovlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash borasida belgilangan vazifalarning ijrosini kompleks monitoring qilish.

2) Jinoyatchilikni «mahallabay» jilovlash borasida ilmiy nuqtai-nazardan asoslantirilgan yangi uslub va usullarni amaliyotga joriy etgan holda har bir hududda kompleks tezkor-profilaktik tadbirlarni «xonadonbay» va «fuqarobay» usulida amalga oshirish. Bu borada:

– “qizil” toifadagi mahallalarga biriktirilgan sektor rahbarlari va mas'ullar (hokim yordamchisi, yoshlar etakchisi, xotin-qizlar faoli va boshqalar) tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etishga qaratilgan manzilli profilaktik tadbirlarni o'tkazish;

– doimiy e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan shaxslarning ro'yxatini shakllantirilgan holda ularni «Huquqiy e'tibordagi shaxslar reestri»ga kiritish orqali huquqbuzarliklarning psixologik va ijtimoiy profilaktikasini tashkil etish;

– probatsiya hisobidagi mahkumlar, aliment to'lovchi va ishsiz fuqarolarni mehnat bozorida yuqori ehtiyojga ega bo'lgan kasb-hunarga o'qitish orqali ularni doimiy ish o'rinlari bilan ta'minlash va daromad manbaini yaratish choralari ko'rilishini tashkillashtirish;

– narkologiya sohasini rivojlantirish borasida belgilab olingan kompleks chora-tadbirlar ijrosining to'liq ta'minlanishini tashkil etish orqali ichkilikka ruju qo'ygan, giyohvandlikka chalingan va ruhiy kasallarni majburiy davolatish ishlarini kuchaytirish.

Bunda, jamoat joylarida o'tkir mast holatida bo'lib, atrofida qilargalarga xavf uyg'otuvchi shaxslarga tumanlararo tibbiy yordam ko'rsatilishini ta'minlash;

– mahallada xavfsiz muhitni yaratishda profilaktika inspektoriga ko'maklashuvchi “Faol nuroniylar” jamoatchilik guruhlari faoliyati har bir mahallada yo'lga qo'yish;

– profilaktika inspektori lavozimidan pensiyaga chiqqan tajribali mutaxassislarni yosh profilaktika inspektorlariga jamoatchilik asosida maslahatchi sifatida biriktirish choralari ko'rish.

3) Respublika hududida o'tkazilishi rejalashtirilgan yirik ommaviy-siyosiy tadbirlar davomida jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kompleks tezkor-profilaktik tadbirlarni amalga oshirish.

4) Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ta'minlash borasida har bir hudud kesimida yo'llar infratuzilmasini yaxshilash, harakatni boshqarish tizimini raqamlashtirish, haydovchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda transport vositalarining texnik holati ustidan nazoratni kuchaytirish bo'yicha “Xavfsiz va ravon yo'l” kontseptsiyasi bilan belgilangan chora-tadbirlarning ijrosini to'liq ta'minlash.

5) Ichki ishlar vazirligining Situatsion-tahliliy markazi platformasiga davlat organlarining axborot bazalarini integratsiya qilish, axborot texnologiyalarini ichki ishlar organlarining xizmat faoliyatiga keng tatbiq etish va raqamlashtirish darajasini oshirish choralari ko'rish.

Xususan, jinoyatchilikni jilovlash, jamoat tartibini saqlash va turistlar xavfsizligini ta'minlash sohasiga raqamli tahlil va situatsion boshqaruv tizimlarini respublikaning barcha hududlarida bosqichma-bosqich joriy etish, sodir etilayotgan huquqbuzarliklar, jinoyatlar hamda kriminogen vaziyatni sun'iy intellekt yordamida «mahallabay» situatsion tahlil qilish va prognozlash tizimini yaratish va hokazo.

